

**YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI SHAXS TARBIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

Xo'janiyozov Shokir Rustamovich

UrDU, Arxitektura kafedrası dotsenti

E-mail: shokir_2249@mail.ru

Karimova Ro'zika Baxromovna

UrDU, 221-Madaniy meros ob'ektlarini asrash guruhi talabasi

E-mail: ruzika97karimova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asrning zamonaviy yoshlari tarbiyasi, dunyoqarashi, ma'naviy hayotidagi muammolar tahlil qilingan. Yoshlar-davlatning ertangi kuni, kelajagining davomchilaridir. Xo'sh, Yangi O'zbekistonda yoshlarga berilgan imkoniyatlar qanchalik o'zini oqlayabdi? Marifatli shaxs tarbiyasida ko'proq nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim? Ushbu maqolada shu va shu kabi savollarga javob topish orqali muammolar va yechimlar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar. mentalitet, egosentrizm, globalizm, ma'rifatli jamyat, Yangi O'zbekiston, jaholat, mafkuraviy bo'shliq.

Abstract. This article discusses the problems, solutions and results of the education of modern youth of the 21st century. Any problem related to youth is related to the future of the country. How justified are the new reforms and opportunities given to young people in the new Uzbekistan? Where are the roots of the problems in the education of a wise person? What should we pay more attention to in education? This article analyzes the results by finding answers to these and similar questions.

Key words. mentality, egocentrism, globalism, enlightened society, New Uzbekistan, ignorance, ideological gap.

“Biz yurtimizda qanday islohatlarga qo'l urmaylik, avvalo, yoshlarga, yoshlarning kuch-g'ayratiga, azmu shijoatiga suyanamiz.

Sh.M Mirziyoyev



Kirish. Insoniyat paydo bo'libdiki, eng dolzarb, eng mashaqqatli va eng qiyin vazifa-yoshlar masalasi bo'lib kelgan. Jamyatning kelajagi, rivoji, tinchligi va xotirjamligi yoshlar tarbiyasi bilan bog'liqdir. Tarbiya masalasi qadryat, an'ana bilan bog'liqlikda hal etilsagina jamyatimizga yot g'oyalar kirib kela olmaydi. Tarixga etibor beradigan bo'lsak, Misr

ehromlaridan birining devoriga juda qadim zamonlardanoq –bugungi yoshlar o’zgarib ketgan mazmunidagi gap yozib qoldirilgan. Demak har bir davrda yoshlar tarbiyasi o’sha davrning muhim muammosi sifatida qaralgan. Bugun insoniyat taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy kuch emas, intellektual salohiyat, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi kuchga aylangan. Yoshlar bilan bog’liq muammolar mavjud har qanday millat, davlatning kelajagi yo’q. Tarbiya masalasida buyuk ma’rifatparvar bobomizning hikmatli so’zlari hech qachon o’z kuchini yo’qotmasligiga yana bir bor amin bo’ldim, - “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”. Avvalo ma’rifat tushunchasiga tarif bersak, ma’rifat- kishilarning bilimliliigi, muayyan sohada bilimga egaligi, madanyati, ta’lim-tarbiyasi umumiy holda inson marifatini belgilovchi omil hisoblanadi. Marifat bu insonning o’zi sababchi bo’lgan qaramlik holatidan chiqish. Qaramlik holati boshqasining yordamisiz o’z ongidan foydalana olmaslikdir. Marifat shunday qudratli kuchki u insonlarga jur’at va har qanday holatda ham mustaqil qaror qabul qilish uchun kuch beradi. Marifat va axloq bir birini taqoza qiluvchi hodisa bo’lib, axloqiy meyorlarsiz marifatga erishib bo’lmaydi. Bu borada Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma’naviy va marifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohatlar ham muhim ahamyatga ega. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi- manavyatdir. Davlatning kuchi shu ikki birlikdadir- kuchli iqtisodiyot va marifatli jamyat.

Muhokama va natijalar. Biz aslida kichik deb hisoblagan muammolar o’z ortidan katta kulfatlarni keltirishi mumkin. Masalan yoshlar orasida tarbiyasizlik, ongsizlik, bilimsizlik. Xo’sh, muammoning yechimi nimada? Bu savolga javob topish uchun avvalo, yoshlar tarbiyasiga tasir ko’rsatuvchi salbiy muammolarga to’xtalsak:

- Nosog’lom oilaviy muhit
- Jamyatdagi ishsizlik muammosi
- Yoshlar o’rtasida erta turmush qurish
- Rivojlanib borayotgan texnologiyalar va “ommaviy madaniyat”.



Nosog’lom oilaviy muhit. Insonning marifatli shaxs bo’lib kamol topishida oiladagi muhitning o’rni qanday? Ota-ona qanchalik ilm-ma’rifatli ekanligi, ular orasidagi munosabatlar farzand tarbiyasi uchun nihoyatda ahamyatlidir. Agar ota-ona ilm ma’rifatli, dinu-diyonatli, odob-axloqli, oilada o’zaro hurmat-izzatli bo’lsa farzand ham shunday hislatlarga boy

bo’lib voyaga yetadi. Farzand- bu ota onaning ko’zgusi bo’lib, jamyatda o’z oilaviy tarbiyasidan kelib chiqib muomila qiladi. Oilada nosog’lom muhit, yani tinimsiz

urush-janjallar, bir biriga bo'lgan qo'pol munosabat bolani hayotdan bezishga, hammaga nafrat bilan qarashiga sabab bo'ladi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, turli xil huquqbuzarliklar, jinoyatchilik, giyohvandlikka ruju qo'yish, diniy ekstremistik guruhlarga qo'shilib ketish va shu kabi illatlarning asosida aynan yuqorida takidlagan nosog'lom oilada voyaga yetgan yoshlarimizni ko'rishimiz mumkin. Xo'sh, ma'rifatli shaxsni voyaga yetkazuvchi oila qanday bo'lishi lozim? Bilimli, ma'lum bir kasbning egasi bo'lgan, dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda diniy bilimlarga ham ega, iymon-e'tiqodli, bir birini tushunuvchi ota-onalar qaramog'ida voyaga yetgan farzandlardan kelajakda, albatta yetuk, ma'rifatli shaxsni ko'rishimiz mumkin.

Jamyatdagi ishsizlik muammosi. E'tibor beradigan bo'lsak, nafaqat O'zbekistonda balki jahon yoshlari orasida ishsizlik muammosi ham eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Hozirda, hatto, eng rivojlangan mamlakatlarda yoshlar bandligini taminlash katta muammoga aylangan. Ularning ko'pchiligi xorijda ish topaman deb odam savdosi atalgan jirkanch jinoyatning qurboniga aylanmoqda. Shuningdek hozirgi kunda ko'pgina davlatlarda yuz berayotgan inqiloblar, tartibsizliklar boshida kim turibdi, uning tarkibini kimlar tashkil qilmoqda? Albatta, bu guruhlarining asosida o'zining fikriga ega bo'lmagan, kim nima desa shunga ergashib ketadigan, boshqacha qilib aytganda mafkuraviy imuniteti sust, manaviy qoloq bo'lgan yoshlar turibdi. Dunyodagi bu kabi tartibsizliklarni keltirib chiqarayotgan vayronkor kuchlar zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanyabdi, yani ular professionallashmoqda. Bu yo'lda ular asosan ish izlayotgan yoki qisqa vaqt ichida boyib ketishni hayol qilgan yoshlardan yoshlardan foydalanmoqda. Ular o'smirlarning his-tuyg'ularidan foydalanishning strategyasini o'ylab chiqishgan. Buzg'unchilar bilishadiki, his-tuyg'ularga tayangan axborot xotirada chuqur saqlanadi, shu orqali yoshlar diniy-ekstremistik tashkilotlarga a'zo bo'lib, terrorchilik harakatlarida faol ishtirok etishyabdi. Aynan, ilimsiz, manaviy ongi rivojlanmagan yoshlar esa ular uchun o'ljaga aylanadi. Xo'sh nima qilish kerak? Avvalo yoshlarimizga hali kech bo'lib ulgurmasdan qo'liga qog'oz va qalam tutqazish kerak. Bilim olish, o'qib-o'rganish, kitobga mehr paydo qilish orqali ularga bugun nima uchun yashayotgani, qanday maqsad sari intilishi va buning uchun nima qilishi lozimligini uqtirishimiz kerak.



Yoshlar o'rtasida erta turmush qurish ham hozirgi kunning dolzarb mavzusi bo'lib qolmoqda. Erta turmush qurishning yoshlar tarbiyasida ahamiyati qanday? Hali dunyoqarashi to'liq shakllanmagan, oila muqaddasligi-yu uning past-balandliklariga manan tayyor bo'lmagan yoshlar oila qurishadi. Tabiiyki bunday yosh oilalarda arzimas, kichik

muammolar paydo bo'la boshlaydi. Oilaning shu kabi kichik muammolaridan ko'pchilik yosh oilalar o'rtasida ajralishlar soni ortmoqda. Bundan eng ko'p zarar ko'radiganlar bu farzandlarimizdir. Bunday notinch oilada ham ma'naviy ham moddiy tarafdin sarson bo'layotgan bolalarda kelajakda oilaga, insonlarga, hayotga nisbatan g'azab hissi paydo bo'ladi. Bu omillar o'smirlik davrida o'z salbiy oqibatlarini nomoyon qila boshlaydi. Yoshlar manavyatining poydevori bu bolalikda olingan tarbiyadir.

Rivojlanib borayotgan texnologiyalar va "Ommaviy madaniyat". Xo'sh biz bu mavzuda qanday malumotlarga egamiz, ommaviy madaniyat o'zi nima? Bu ibora ostida biz tasavvurimizga ham sig'ira olmaydigan ko'plab axloqiy buzulqik g'oyalari mavjud. Xususan, zo'ravonlik, ochiq-sochiq kiyinish, tatirofkalar va egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, ana shu axloqsizlik orqasidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning qadim an'ana va qadriyatlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan hatarli tahdidlar shular jumlasidandir. Rivojlanayotgan, tezkor internet va zamonaviy texnologiyalar asrida yashayabmiz bu bizdan ancha hushyorlikni talab qilmoqda. Internetda har kim izlagan narsasini topa oladi, ma'naviy imuniteti kuchli bo'lgan, o'z oldiga buyuk maqsadlarni qo'ygan yoshlar uchun eng katta yordam beruvchi vosita bo'lsa, ba'zibir manaviy qoloq, ongsiz yoshlar uchun tuzoq vazifasini bajarmoqda. Zamonaviy yoshlar orasida milliy urf-odatlarimizni "eskilik sarqiti" deya atalishi ular tarbiyasiga xavf solib bormoqda. Xorijdan kirib kelayotgan turli kliplar, filmlar



axloqiy buzulqikni targ'ib etib, yoshlarimizni muqaddas qadriyatlarimizga nisbatan hurmatsizlik qilishga, yengiltaklik hissinu nomoyon qilishga undamoqda. Muammoning yana bir salbiy tarafi shuki, jahon miqyosida yoshlar o'limi ham oshib borayabdi va achinarlisi yoshlar o'limining uchdan bir qismini o'z joniga qasd qiluvchilar tashkil etmoqda.

Xulosa. Davlatimizda yoshlarni ijtimoiy, ma'naviy, moddiy qo'llab quvvatlash, huquq hamda majburiyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, jamiyatda munosib o'rin egallashlariga qulay sharoit yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylantirish mumkin. Mustaqillik yillaridanoq mamlakatimiz ta'lim sohasiga yo'naltirayotgan yillik harajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 % ini tashkil qilmoqda. Vaholanki boshqa rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 3-5 % dan oshmaydi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa talimdan ajratib bo'lmaydi- bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi". Mamlakatimizda yoshlarni manan va jismonan sog'lom, yuqori

intellektual salohiyatli insonlar etib voyaga yetkazish, ularga puxta bilim berish, milliy an'ana va qadryatlarimizga hurmat ruhida kamol topishiga zarur shart- sharoitlar yaratilgan. Davlatimiz rahbarining joriy yil 6-fevralidagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarori izlanuvchan, ilmga chanqoq yoshlar uchun muhim dastur bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://www.religions.uz/> Yoshlar tarbiyasida oilaning o'rni.
2. <https://www.yoshlikjurnal.uz/> Yoshlar tarbiyasi- millat kelajagi poydevori.
3. <https://www.cyberleninka.ru/> Yoshlar ma'navyatiga tasir ko'rsatuvchi omillar.
4. <https://www.buxdu.uz/> Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.